

Topshiriq. Matnni o‘qing va shu asosda to‘g‘ri yozish uchun nimalarni bilish kerakligi haqida taklif-tavsiyalaringsizni yozma ravishda bayon qiling.

So‘z va qo‘shimchalarni to‘g‘ri yozish, qo‘shib va ajratib yoziladigan so‘z va so‘z shakllarini bilish, bosh harflar bilanyozilishi kerak bo‘lgan so‘zlarni farqlash kabi imlo amallarini o‘zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishish mumkin

emas. Imlo qoidalarini bilish faqat to‘g‘ri yozishni o‘rganishuchungina zarur deyish xato bo‘ladi. So‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, nutq jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish, hatto so‘zning matndagima’nosini to‘g‘ri anglash va o‘rinli qo‘llay bilish uchun ham

imlo qoidalarini puxta egallash taqozo etiladi. Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ni chuquro‘rganish va yozma nutqda ularga to‘la amal qilish har bir o‘quvchi, qolaversa, barcha fuqarolarning burchidir. Afsuski, ko‘zga tashlanib turgan ko‘cha peshtoqlarida, idoralar nomi yozilgan lavhalarda **Yunus—obod, Yangi—bozor, orom—baxsh, ko‘z oynak, elektro texnika** kabi xato yozuvlar uchrab turibdi. Vatanini, millatini sevgan har bir kishi yozuv madaniyatiazal-azaldan milliy qadriyatlarning ko‘zgusi, ilmiy-ma’rifiyalohiyatning belgisi bo‘lib kelayotganini aslo unutmasligilozim. Ulug‘lanayotgan qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan milliyozuvimizga hurmat va e’tiqodni to‘g‘ri va chiroyli yozish orqalitarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir.